

## OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN O'SMIRLARDA JINSIY IDENTIFIKATSİYANING NOMOYON BO'LISH XUSUSİYATLARI

*Niyazova Nilufar Farhadovna  
UrDu mustaqil tadqiqotchi*

*Annotatsiya: Maqolada ota - ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar jinsiy identifikatsiyasini fenomenologik yondoshuv orqali tushunish asos qilib olinadi. Jinsiy identifikatsiya shakllanishidagi birlamchi va ikkilamchi jinsiy sotsializatsiya davrlari belgilab o'tiladi va ayniqsa ikkilamchi davridagi shaxs ichki dunyosida bo'lib o'tadigan o'zgarishlar, xususan, desotsializatsiya jarayonlariga e'tibor qaratiladi. Maqolada, shuningdek, o'zbek milliy mentaliteti va etnomuhitiga xos xususiyatlar ham shaxs jinsiy identifikatsiyasi nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Bundan tashqari maqolada bugungi zamonaviy oilalarda gender tenglikni namoyon bo'lishida ta'limiylar jarayonlarning o'rni ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos ta'siri asoslangan. Jamiyatning rivojlanishida erkaklar va ayollarning rolini birdek oshirish lozimligi ta'kidlangan. Bir qator adabiyotlar tahlili yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: jinsiy identifikatsiya, jinsiy ustavokva, desotsializatsiya, fenomen, muhit, shaxs, milliy mentalitet, hududiy va milliy psixologiya, oila, ota-ona, o'zaro munosabatlar.*

### ОСОБЕННОСТИ НЕЯСНОЙ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ПОДРОСТКОВ, БЕЗ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПОМОЩИ

*Аннотация: В основу статьи положен феноменологический подход к пониманию сексуальной идентичности подростков, оставшихся без попечения родителей. Определены периоды первичной и вторичной половой социализации в формировании половой идентификации, обращено внимание на изменения, происходящие во внутреннем мире личности в течение вторичного периода, в частности, на процессы десоциализации. В статье также анализируются особенности национального менталитета и этносреды узбеков с точки зрения гендерной идентичности. Кроме того, роль образовательных процессов в проявлении гендерного равенства в современных семьях основана на специфическом влиянии социальных процессов. Подчеркивалось, что роль мужчин и женщин должна в равной степени повышаться в развитии общества. Приведен анализ ряда литературных источников.*

*Ключевые слова: сексуальная идентификация, половая установка, десоциализация, явление, среда, личность, национальный менталитет, региональная и национальная психология, семья, родители, взаимоотношения.*

### CHARACTERISTICS OF UNCLEAR GENDER IDENTITY IN ADOLESCENTS WITHOUT PARENTAL CARE

*Abstract: The article is based on a phenomenological approach to understanding the sexual identity of adolescents without parental care. The periods of primary and secondary sexual socialization in the formation of sexual identification are determined, and attention is paid to the changes that take place in the inner world of a person during the secondary period, in particular, to the processes of desocialization. The article also analyzes the characteristics of the Uzbek national mentality and ethno-environment from the point of view of gender identity. In addition, the role of educational processes in the manifestation of gender equality in today's modern families is based on the specific influence of social processes. It was emphasized that the role of men and women should be equally increased in the development of the society. An analysis of a number of literatures is covered.*

*Key words: sexual identification, sexual establishment, desocialization, phenomenon, environment, person, national mentality, regional and national psychology, family, parents, mutual relations.*

**KIRISH.** Inson, ulg'ayishi davomida, tashqi olamni o'rganishi bilan birga o'z-o'zini anglashi ham muqarrar jarayon bo'lib, bu orqali shaxs o'zini borliq bilan muvofiqlashtiradi va ichki dunyosini ijtimoiy talablar bilan uyg'unlashtirib boradi. Bunday uyg'unlashuv shaxs shakllanishining asosiy sharti bo'lib, ushbu jarayon shaxsning o'zligini anglashining, ya'ni identifikatsiyaning turli jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bunday jihatlar ichida eng ahamiyatlilaridan biri - jinsiy identifikatsiyadir. Darhaqiqat, insonning jinsi uning o‘zgalar tasavvuridagi yagona o‘zgarmas xususiyatlaridan biridir. Biz o‘zganing ko‘z va soch rangini unutishimiz mumkin, uning qiyofasidagi ko‘pgina belgilarni xotiramizda tiklay olmasligimiz mumkin. Lekin uning jinsini hech qachon unutmaymiz. Agar insonning turli xususiyatlarini alohida talqin etsak, uning jinsiy tasnifi eng ahamiyatli jihat ekanligi ayon bo‘ladi. O‘zbekistonda bugungi kun zamonaviy ta’limining gender tengligiga erishishda o‘ziga xos roli mavjud bo‘lib ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq bir qator dasturlar, qonun hujjatlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta’minalash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilinib, gender tengligi bo‘yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasи ham mavjudligi ta’kidlangan . Ma’lumki, 1948 yilda BMT Bosh assambleyasи tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon dekleratsiyasida va ayollarning tengligi alohida e’tirof etilgan bo‘lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”, deya ta’rif berilgan. BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta’kidlanishicha, “Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktda ko‘rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta’minalash majburiyatini oladi” . Shu o‘rinda asrlar davomida sayqal topib kelayotgan milliy qadriyatlarni to‘g‘ri anglab yetmaslik, ijtimoiy, umuminsoniy qoidalarni erkaklar tomonidan shaxsiy tarkibda buzib talqin qilinishi, tushunilishi, er-xotin xissiy-intim munosabatlarida ayollar rolini to‘laqonli bajarilmasligi, stereotiplar ta’sirida ayollarning tabiatiga nomuvofiq xatti-harakatlari gender tengsizlikka, kamsitilishga sabab bo‘lib qolmoqda. Mavzuning dolzarbligi xotin-qizlar huquqlarini ta’minalash, ijtimoiy faolligini oshirish, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash, zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot ishimizning dolzarbligini yanada oshiradi va uni empirik o‘rganish lozimligini taqozo etadi.

### MAVZU BO‘YICHA IZLANISHLARNING QISQACHA TAHLILI

Jinsiy rol - bu u yoki bu jinsga mansublikni anglatuvchi talablar tizimi bo‘lib, individning bu talablarga mos kelish darajasiga qarab u erkak yoki ayol sifatida qanchalik shakllanganligiga baho beriladi. Jinsiy moslik bu - insonning o‘zini u yoki bu jinsga mansub, deb qarashi va bu jinsga oid xatti-harakatlarni amalga oshirishi jarayonlarining birligidir. Jinsiy rol va jinsiy o‘zlikni anglash o‘zaro bog‘liq iboralar bo‘lib, hatto o‘zaro uyg‘unlashuvchi holatlar hamdir. Jinsiy rol shakllanishidagi asosiy omillardan biri - jamiyatdagи mavjud gender stereotiplaridir. Gender stereotiplari deganda jamiyat fuqarolari ongidagi erkak va ayollarga xos tasavvurlar tizimi tushuniladi. Jinsiy identifikatsiya asosida shakllangan ijtimoiy ustakovkalar yotadi va bu ustakovkalar insonning nafaqat tashqi muhit bilan balki o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini ham belgilaydi. Shu ma’noda milliy muhit xususiyatlari har qanday jinsiy ustakovkalar shakllanishidagi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston xududi va mahalliy xalq milliy xususiyatlari tahlliga murojaat etarkanmiz, jinsiy ustakovkalar shakllanishidagi o‘zbek millati vakillariga xos etnopsixologik jihatlar o‘ziga e’tiborni tortadi.

Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume’tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o‘z milliy qonunchiligidida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ammo, milliy qonunchiligidan yoritilgan ayollar va erkaklar tengligini qonuniy kafolatlari ishlab chiqilganligiga qaramasdan oilaviy nizolarning aksariyat sabablari erkaklar tomonidan ayol huquqlarini ayrim holatlarda poymol qilinishi, ko‘p holatlarda ayollar huquqlarini tan olinmasligi sababli ziddiyatlarni kelib chiqayotganligi, fikrimizcha muammoning etnopsixologik jihatlarini xam o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi va o‘zbek oilalarida erkaklar tomonidan xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga nima uchun va qanday sababga ko‘ra yetarlicha ahamiyat berilmayotganligini milliy yoki psixologik jihatlari mavjudmikan, degan savolni vujudga keltiradi . Yangilanayotgan O‘zbekistonda gender tenglikni namoyon bo‘lishida milliy-etnik qadriyatlarning o‘ziga xos ta’siri mavjud. Bu kabi o‘ziga xoslik er-xotinlarning o‘zaro munosabatlari va muloqot jarayoniga, gender tenglikni namoyon bo‘lishiga xam ta’sir ko‘rsatadi . Ayniqsa oilaning katta vakillari oldida yosh er-xotinlarning bir-birlariga nisbatan his etilayotgan tuyg‘ulari, mehrning ko‘rinishlari, shakllarini namoyon etimasligi, bu borada “uyat”, “ayblob” kabi bir qator stereotiplarning mavjudligi ham er-xotinlarning shaxslararo munosabatlarida psixologik uyg‘unlikni buzilishiga olib keladi. Jumladan ular organizmidagi neyroassotsiativ bog‘lanishlardagi

nomoslik; immun tizimdagi uyg‘unlikni rivojlanmaganligi; odatlaridagi nomutanosiblik; o‘z o‘rnida “psixoemotsional”, “aqliy-intellektual”, “biokimyoviy”, “intim-jinsiy hayot” va organizmning “biologik hayot kechirish” qonuniyatlarini buzilishiga olib kelishi kuzatilgan . Er-xotinning yagona va hamjihat organizm sifatida uyg‘unlashib borishi esa oilaning har jihatdan barqarorligini ta’minlaydi. Passivlik, qaramlik, emotsiyonallik, intuitivlik, irratsionallik, empatiya kabi xususiyatlar an‘anaviy ravishda ayollik fazilatlari deb baholangan . Ayolning umumiyl gender roli “ona”, “xotin”, “uy bekasi”, “oila o‘chog‘i, qo‘riqchisi” rollarining mazmunini ifodalab bundan keyingina “ishchi”, “professional shaxs”, mutaxassis bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Erkaklarning an‘anaviy gender roliga xos bo‘lgan xususiyatlar “ta’minlovchi”, “himoyachi”, “professional shaxs”, “oila boshlig‘i” deb baholanib, shundan keyingina “er”, “ota” rollarini o‘z ichiga olishi ta’kidlangan. Mavzu doirasidagi adabiyotlar tahlili natijasida an‘anaviy qarashlarda hukmronlik, ijtimoiy faollik, tajovuzkorlik, ratsionalizm, mantiqiy fikrlash erkaklarga xos xususiyatlar deb baholanishi shakllangan stereotiplarni mayjudligini ko‘rsatadi. Maqolaning ilmiy yangiliqi shundan iboratki, olimlarimiz tomonidan o‘zbek oilasi misolida gender stereotiplarining erkak va ayollarning o‘zaro munosabatlariga ta’siri, gender xulq-atvor, gender rollarni shakllanishiga ta’sir etuvchi milliy qadriyatlarning roli, yetarli o‘rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek oilalarida er-xotin gender tengligiga erishishda hissiy-psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik qadriyatlар va psixofiziologik omillarni rolini aniqlash, gender tenglikni ta’milanishiga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning obyekti sifatida jamiyatimizdagi turlituman oilalar tanlandi. Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy, matematik statistik, psixologik tahlildan foydalanildi. Tadqiqotning empirik manbaini test, anketa so‘rovnomalari natijalari tashkil etdi.

## NATIJALAR

Tadqiqot ishimizda Kustova O.L. savolnomasi asosida erkaklar va ayollarni tavsiflovchi genderga xos bo‘lgan - talablar, andozalar, me’yorlar, xususiyatlar, gender stereotiplari shaxsiy semantik farqlari (ShSF) o‘rganildi . “Hayotiy-me’yoriy”, “ideal-ramziy” ma’noda erkak va ayollarda mavjud bo‘lgan gender stereotiplari aniqlandi, erkaklik va ayollik xulq-atvor modellari jinslar tabiatiga xos jihatlari bilan taqqoslanildi. Jumladan, “shaxsiy” sifatlarni tavsiflovchi va xususiyatlarni aniqlovchi bipolyar tasdiqlar bilan tuzilgan, kommunikativ ta’sirni idrok etish jarayonida “Ayol obrazi”ni shakllantirish nazarda tutilgan, chunki oilada ayol psixoterapevtlik vazifasini o‘taydi va gender tan olinishida feminlik xususiyatlarini shakllanganligi ham muhim omil sanaladi. Shuningdek, olib borilgan tadqiqot ishlarimizda tekshiriluvchilar shaxsiy semantik farqlash va psixosemantik eksperiment usulidan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda bir qator omillar aniqlab olindi:

- umumiyl jozibadorlik omili;
- shaxsning mustaqilligi omili;
- hissiylik-emotsionallik omili;
- ijtimoiy maqomi;
- bog‘liqlik-tobelik-qaramlik omili;
- hamdardlik ko‘rsatish-empatiya omili;
- feminlik omili;
- erkaklik omili;
- androgenlik omili.

Gender sifat va xususiyatlarini tavsiflovchi tasdiqlar asosida erkak va ayollar “Hayotiy-me’yoriy”, “ideal-ramziy” holatda o‘zлari va turmush o‘rtog‘ini baholash natijalari foiz hisobi 1-jadvalda aks ettilirdi.

1-jadval. Erkak va ayollar “Hayotiy-me’yoriy”, “Ideal-ramziy” holatda o‘zлari va turmush o‘rtog‘ini baholash natijalari (foiz)\

**1-jadval. Erkak va ayollar “Hayotiy-me'yoriy”, “Ideal-ramziy” holatda o‘zlari va turmush o‘rtog‘ini baholash natijalari (foiz)\**

№	asdiqlar	Gender tafovut	Namunali oila				Nizoli oila			
			Ayloning bahosi		Erkakning bahosi		Ayloning bahosi		Erkakning bahosi	
			aqiqiy baho	ideal-dagi baho	aqiqiy baho	ideal-dagi baho	aqiqiy baho	ideal-dagi baho	aqiqiy baho	ideal-dagi baho
1.	Jozibadorlik	ayol	69	97	68	89	54	90	42	85
		erkak	67	80	81	90	43	87	62	80
2.	Shaxsning kuchi omili	ayol	72	96	67	72	68	89	78	65
		erkak	70	98	87	98	86	92	74	98
3.	Hissiy omil	ayol	67	97	65	87	56	89	66	98
		erkak	73	58	56	80	65	88	63	96
4.	Ijtimoiy hxolat	ayol	66	99	78	80	34	83	54	77
		erkak	65	92	89	98	44	92	43	84
5.	Qaramlik omili	ayol	67	25	78	97	56	50	78	60
		erkak	65	45	65	34	78	43	68	28
6.	Empatiya omili	ayol	66	98	70	96	58	87	45	87
		erkak	62	90	65	87	32	78	56	88
7.	Feminlik omili	ayol	72	89	70	96	45	92	53	88
		erkak	69	45	76	88	78	51	58	62
8.	Erkaklik omili	ayol	74	34	56	60	89	56	78	48
		erkak	68	90	87	98	54	94	75	92
9.	Androgenlik omili	ayol	87	98	68	97	58	89	56	97
		erkak	75	87	66	89	47	82	46	76

Jozibadorlik omili ayollik (an'anaviy ravishda ayol fazilatlari, erkaklik (an'anaviy ravishda erkak fazilatlari, androginiya gender-neytral sifatlar o‘rganildi. Emotsionallik, qaramlik, empatiya, ayollik omillari ayolga nisbatan an'anaviy qarashlarni aks ettirib, namunali oilada 70-80 foiz, yuqori ko‘rsatkichlar an'anaviy baholanishini ko‘rsatdi, ideal bahosi bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha 80-98 foizni tashkil etdi. Erkaklik omillari uchun yuqori qadriyatlar bu erkaklarning ham jins, ham shaxs sifatida mavqeini balandligi, kuchi, ijtimoiy mavqeい, zamonaviyligi, o‘rganilayotgan obrazlariga nisbatan an'anaviy nuqtai nazardan dalolat berishi tasdiqlandi har ikki oilada ham erkaklar bahosida yuqori natijalarini – 80-98 foiz oraliq natijalarini berdi. Ammo nizoli oila ayollari tasdig‘ida – empatiya 32 foiz, erkaklk 54 foiz baholanib, erkaklarda bu sifatlarni hayotiy me'yordarda kam shakllanganligini tasdiqlashgan. Jumladan, nizoli oila erkaklar tomonidan ayollarga xos sifatlari kam shakllanganligini tasdiqlashdi. Bu o‘z navbatida gender tenglik muammolarini hal etilmasligiga sabab bo‘luvchi omil hisoblanadi O‘zbek oilalarida er-xotinlarni gender tengligi masalasi biroz tortishuvli va bu psixogenetik, psixofiziologik, psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik, milliy-etnik omillarni mavjudligi bilan izohlanadi. Hissiy-psixologik uyg‘unlik rivojlangan er-xotinlar histuyg‘ularida bir-birlarini sevimli inson sifatida, o‘zaro ideallashgan holda idrok etish, chiroqli, aqli, ijobji xislatlari va o‘ziga xos sifatlari idrok etilishi aniqlandi. O‘zaro altruizm ifodalanib, er-xotinlarda yoqimlilik tuyg‘ulari ustun bo‘lishi kuzatildi. Erkaklar idrokida ayoli bilan hamkorlik, hamjihatilikni o‘rnatish ko‘nikmasi past darajada bo‘lib, ko‘p xollarda ustunlik va dominantlikni yoqlashlari kuzatildi. Xissiy-psixologik begonalashuv mavjud oilalarda ayol erkakning yordamisiz eplayman, kuchliman, uddalayman degan nuqtai nazardan qarashlari shakllanganligi aniqlandi, bu esa muammoning asosiy ildizi hisoblanadi. “Birgalik” effekti, hissiy-psixologik uyg‘unlikni rivojlantirib tenglik, o‘zaro bir-birlarini tan olish, yon berish holatini mavjudligi bilan izohlanadi. Er-xotinlar o‘rtasidagi hissiy-emotsional uyg‘unlik o‘zaro

birgalik effektini rivojlanishiga olib keladi va psixologik jihatdan tenglik munosabatlarini shakllantiradi.

### MUHOKAMA

Ushbu holat o'zbek oilaviy muhiti misolida tahlil etilar ekan, ayrim etnopsixologik xususiyatlarni nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Xususan, ko'pgina o'zbek oilalariga xos bo'lgan qarindosh-urug'chilik munosabatlarining zichligi, bolani o'ziga xos tarzda ardoqlash va erkash ko'pgina o'g'il bolalarda iliqlik va hissiyotga moyillikning shakllanishiga asos yaratadi. Bundan tashqari, bolaning ilk yoshlik davridanoq o'z tengqurlari doirasida ko'p vaqtini o'tkazishi ham undagi jinsiy o'zligini anglash jarayonini tezlashtiradi va o'z jinsiy guruhiga xos bo'lgan stereotiplarni o'zlashtirish hamda ustanovkalar shakllanishiga olib keladi. O'zbek etnomuhitida tarbiya xususiyatlari ham jinsiy identifikasiya shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazmay qo'yaydi. Bolaga uning jinsiga muvofiq tarzda munosabatda bo'lish, tarbiya jarayonida gender jihatlarga katta e'tibor qaratish millatimiz mentalitetiga xos bo'lgan va Respublikamizning deyarli barcha hudud vakillarida uchrab turadigan hodisadir. Tarbiya jarayonida ota-onaning jinsiy rollar tafovutlariga hatto yetarli darjada anglamagan ravishda rioya qilishlari va bu rollarga taalluqli munosabatlarni ko'rishlari, ulg'ayayotgan shaxsda o'ziga xos jinsiy ustanovkalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Ota-onsa amal qilib yashaydigan jinsiy rollardan kelib chiquvchi munosabatlar asta-sekin bola tomonidan interiorizatsiyalashadi va uning ichki faoliyati rejasiga aylanib boradi. Har qanday shakllangan ustanovka esa, o'z navbatida, qotib qolgan va statik holat bo'lmay, balki rivojlanib boruvchi dinamik jarayondir. Bu degani, vaziyat taqozosi bilan, u yoki bu darajada shakllangan ustanovka aktual ehtiyoj va mavjud vaziyatga binoan o'z ichki strukturasini yanada mukammallashtirish va kerak bo'lsa, qayta qurilishi imkoniyatiga ham ega. Ustanovkalar o'zining amal qilishi davomida shaxsning yanada yuksakroq motivatsion-ehtiyoj qatlamlari bilan hamohanglikda faoliyat olib boradi. Albatta bunday ta'rif jinsiy ustanovkalar doirasida ham amal qiladi. Shaxsning jinsiy identifikasiyasini fenomen sifatida tushunish uning o'zgarib boruvchan hayot ga moslashuvi mexanizmlarini yanada to'laroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, bunday bilimlar, o'z hayotida qiyin ahvolga tushib qolib, psixologik ko'makka muhtoj bo'lgan shaxsning istiqboldagi rejalarini va taqdirda o'zgarishlarni asoslash uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Hayotda ko'p holatlar uchraydiki, insonning ichki diskomfort holati o'zining xatti-harakat sabablari va mayllarini to'la anglay olmaslik sabablaridan iboratdir. Inson ikkilamchi jinsiy identifikasiya davrini (17-25 yoshlar) kechirish paytida ushbu jarayonlar yanada keskinlashishi va natijada qayta qurilishi - desotsializatsiya pog'onasiga o'tishi mumkin. Lekin, har qanday qayta qurish jarayoni qiyinchiliklardan holi bo'lamanidek, jinsiy identifikasiya sohasi ham insonga ma'lum noqulayliklar va ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Bunday paytda insonga yordam berishning asosiy uslublaridan biri - uning ichki dunyosida nima bo'layotganini, fenomenologik qayta qurilish jarayonini tushunishi va shaxs tomonidan anglanishi bilan erishiladi.

XULOSA. er-xotinlarning yagona va hamjixat organizm sifatida uyg'un tarzda oilaviy hayot kechirishlari; organizmning psixofiziologik, psixo-emotsional, biologik, ruhiy-jinsiy uyg'unligini ta'minlanishi;

Ijtimoiy-psixologik moslikni mavjudligi;

er-xotinlar biologik-jins va ijtimoiy-shaxs sifatida bir birlarini tan olishlari;

Milliy-etnik qadriyatlar - gender tenglikning ijtimoiy-hissiy-psixologik asosi hisoblanadi. Er xotinlar gender tengligi muammolarini o'rganish natijasida quyidagi amaliy takliflarni berishimiz mumkin:

har ikki erkak va ayollarda zamonaviylik omili, gender-neytral sifatlarni tarkib toptirish;

erkaklarning ham jins, ham shaxs sifatidagi mavqeini oshirishga xizmat qiluvchi bilimlarga ega bo'lishlariga erishish;

er-xotinlarni psixogenetik, psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik, milliy-etnik omillar ahamiyatini anglashga yordam beruvchi ma'ruzalar , seminar- treninglar tashkil etish;

"Birgalik" effekti, hissiy-psixologik uyg'unlik, tenglik, o'zaro bir-birlarini tan olish, yon berish ko'nikmalarini shakllantirish;

hissiy-emotsional, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, huquqiy, siyosiy, aqliy, axloqiy, estetik intellektini shakllantirishga qaratilgan o'quv kurslari tashkil etish

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 21 iyundagi Oliy Majlis Senatidagi nutqi. - <https://president.uz/uz/lists/view/2692>

2. BMTTD, Inson rivojlanishi tugrisidagi ma'ruza. – Tashkent: 1996.

3. Saribaeva U.S. O'zbek oilalarida gender tenglik va milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. - T.: "Pedagogika" ilmiy-nazaryi va metodik jurnali 2020 yil 5- son, 3-6 b.

4. Sarabayeva U.S. Characteristics of gender equality between husband and wife in uzbek families // Vidyabharati international interdisciplinary research journal. 2021. Web of science. 3940-3949 (Special Issue) ISSN 2319-4979. 615

5. Mark Barton. <https://www.instagram.com/markbarton>.

6. Минюрова С.А. Кустова О.Л. Формирование «образа женщины» в различных социальных группах. // Журнал практического психолога — 1997. — № 5. — С. 27-29; Семейная психология и семейная терапия. — 1997. — № 1. — С. 95-97.

7. Кустова О.Л. Образ женщины в современных средствах массовой информации (на примере журналов Космополитан, «ОНА», «Домашний очаг», «Елле» и др.) // Образ женщины в средствах массовой информации. Материалы декабрьской конференции. Приволжский Дом знаний, 1998